

# Demografik holat

(dastlabki ma'lumotlar)


## Doimiy aholi soni.

Qoraqalpog'iston Respublikasi doimiy aholisi soni 2018 yil 1 aprel holatiga 1847,6 ming kishini tashkil etib, 2018 yilning yanvar-mart oylarida 5,3 ming kishiga yoki 0,3 %ga o'sgan. Jumladan, shahar aholisi soni 908,1 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 49,2 %), qishloq aholisi soni 939,5 ming kishini (50,8 %) tashkil etdi.

## E'tibor bering: 2018 yil yanvar-mart


- Aholi soni **5,3 ming kishiga** ko'paydi.
- Tirik tug'ilganlar soni **7,9 ming nafarni** tashkil etdi.
- **1,9 mingta** vafot etganlar qayd etildi.
- FHDYO bo'limlarida **4,2 mingta nikoh** va **0,3 mingta ajralishlar** ro'yxatga olindi.

## Qoraqalpog'iston Respublikasi aholisining umumiy o'sishi (2018 yil yanvar-mart oylarida)




## Demografik holat

### Tumanlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi (2018 yil 1 aprel holatiga, respublika jami aholisiga nisbatan, %da)



Respublika hududlari kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2018 yil 1 aprel holatiga eng ko'p aholi soni Nukus shaxrida 312,1 ming kishini (respublika aholisi sonidagi ulushi 16,9 %ni) va To'rtko'l tumanida 207,2 ming kishini (11,2 %), aksincha eng kam aholi soni Mo'ynoq 30,9 ming kishini (1,7 %) va Taxtako'pir tumanida 39,8 ming kishi (2,1 %) tashkil etdi.

Tumanlar kesimida aholining eng yugori o'sish sur'ati 2017 yilning mos davriga nisbatan Nukus tumanida 2,3 % ga, Beruniy tumanida 1,9 %ga, To'rtko'l tumanida 1,7 %ga, aksincha eng kam o'sish sur'ati Qorao'zak 0,8 %ni, va Shumanay tumanida 0,7 %ni tashkil etdi.



## Demografik holat

**Tug'ilish.** 2018 yilning yanvar-mart oylarida 7,9 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 17,4 promilleni tashkil etib, 2017 yilning mos davriga nisbatan 0,2 promillega kamaygan (2017 yilning yanvar-mart oylarida 17,6 promille bo'lgan).

Tug'ilish koeffitsiyenti 2017 yilning mos davriga nisbatan Amudaryo tumanida (15,2 promilledan 17,0 promillega) va Nukus shaxrida (16,6 promilledan 17,8 promillega) shahrida sezilarli o'sgan bo'lib, aksincha kamayish esa Qo'ng'iro't (19,0 promilledan 16,8 promillega) va Shumanay (13,9 promilledan 11,1 promillega) tumanlarida kuzatildi.

### Ma'lumot uchun

Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo'lsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.

### Tumanlar bo'yicha tug'ilganlar soni

	2017 y yanvar-mart		2018 y yanvar-mart.	
	(kishi)	1000 ming kishiga nisbatan, promille	(kishi)	1000 ming kishiga nisbatan, promille
<b>Qoraqalpog'iston Respublikasi</b>	<b>7885</b>	<b>17,6</b>	<b>7920</b>	<b>17,4</b>
Nukus sh.	1260	16,6	1366	17,8
<i>tumanlar:</i>				
Amudaryo	709	15,2	804	17,0
Beruniy	878	19,7	874	19,2
Qorao'zak	216	17,0	212	16,5
Kegeyli	349	16,1	332	15,1
Qo'ng'iro't	588	19,0	527	16,8
Qanliko'l	218	18,0	213	17,4
Mo'ynoq	117	15,5	105	13,8
Nukus	257	22,1	253	21,3
Taxiatosh	288	16,4	260	14,6
Taxtako'pir	154	15,8	160	16,3
To'rtko'l	899	17,9	966	18,9
Xo'jayli	526	18,0	473	16,0
Chimboy	485	17,4	492	17,5
Shumanay	188	13,9	151	11,1
Ellikqal'a	753	20,3	732	19,4

## Demografik holat

**Vafot etganlar.** 2018 yilning yanvar-mart oylarida 1,9 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 4,2 promilleni tashkil etib, 2017 yilning mos davriga nisbatan 0,2 promillega kamaydi (2017 yilning yanvar-mart oylarida 4,4 promille bo'lgan). O'lim koeffitsiyenti 2017 yilning mos davriga nisbatan Nukus tumanida (3,6 promilledan 5,1 promillega) va Mo'ynoq tumanida (4,2 promilledan 5,2 promillega) o'sgan bo'lib, sezilarli darajada kamayishi Taxtako'pir (6,2 promilledan 4,7 promillega), Qanliko'l (5,1 promilledan 3,4 promillega), Taxiato'sh (5,6 promilledan 4,2 promillega) va Chimboy (5,1 promilledan 4,1 promillega) tumanlarida kuzatildi.

### Tumanlar bo'yicha o'lganlar soni


	2017 y yanvar-mart		2018 y yanvar-mart.	
	(kishi)	1000 ming kishiga nisbatan, promille	(kishi)	1000 ming kishiga nisbatan, promille
<b>Qoraqalpog'iston Respublikasi</b>	<b>1973</b>	<b>4,4</b>	<b>1893</b>	<b>4,2</b>
Nukus sh.	348	4,6	324	4,2
<i>tumanlar:</i>				
Amudaryo	189	4,1	198	4,2
Beruniy	194	4,4	193	4,2
Qorao'zak	52	4,1	61	4,8
Kegeyli	103	4,7	102	4,7
Qo'ng'iro't	135	4,4	151	4,8
Qanliko'l	62	5,1	42	3,4
Mo'ynoq	32	4,2	40	5,2
Nukus	42	3,6	61	5,1
Taxiato'sh	99	5,6	75	4,2
Taxtako'pir	60	6,2	46	4,7
To'rtko'l	216	4,3	179	3,5
Xo'jayli	119	4,1	138	4,7
Chimboy	143	5,1	114	4,1
Shumanay	41	3,0	43	3,2
Ellikqal'a	138	3,7	126	3,3

## Demografik holat

2018 yilning yanvar-mart oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 55,5 %i qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 12,0 %i o'simtalardan, 4,1 %i ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 6,3 %i baxtsiz hodisa, zaharlanishva jarohatlanishlardan, 4,2 %i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 1,6 %i yuqumli va parazitlar kasalliklardan hamda 16,3 %i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 0,1 ming nafarni tashkil etib, ularning 84,5 %i perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 8,3 %i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 2,8 %i tug'ma anomaliyalardan, 1,1 %i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 1,1 %i yuqumli va parazitlar kasalliklardan, va 2,2 %i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

### Asosiy o'lim sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi (jami vafot etganlarga nisbatan, %da)



### 2018 yil yanvar-mart

**Tabiiy o'sish.** 2018 yilning yanvar-mart oylarida aholining tabiiy o'sishi 6,0 ming kishini tashkil etib, 2017 yil mos davriga nisbatan 0,1 ming kishiga (2017 yilning yanvar-mart oylarida 5,9 ming kishi bo'lgan) o'sgan.



Tabiiy o'sish:  
6,0 ming kishi

## Demografik holat

**Nikoh va nikohdan ajralishlar.** 2018 yilning yanvar-mart oylarida FHDYO organlari tomonidan 4,2 ming nikoh va 0,3 mingta nikohdan ajralishlar qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 9,2 va 0,7 promilleni tashkil etdi.



### Tumanlar bo'yicha nikohlar va ajrimlar soni

	Tuzilgan nikohlar (birlik)		Nikohdan ajralishlar (birlik)	
	2017 y yanvar-mart	2018 y yanvar-mart	2017 y yanvar-mart	2018 y yanvar-mart
<b>Qoraqalpog'iston Respublikasi</b>	<b>3748</b>	<b>4164</b>	<b>328</b>	<b>336</b>
Nukus sh.	468	529	74	77
<i>tumanlar:</i>				
Amudaryo	405	503	24	23
Beruniy	532	619	30	47
Qorao'zak	90	91	9	8
Kegeyli	158	161	14	20
Qo'ng'iro't	239	218	37	20
Qanliko'l	93	95	8	7
Mo'ynoq	47	40	5	4
Nukus	99	108	8	7
Taxiatosh	129	142	17	15
Taxtako'pir	84	100	4	3
To'rtko'l	496	533	32	27
Xo'jayli	214	247	20	31
Chimboy	202	274	13	22
Shumanay	95	91	12	10
Ellikqal'a	397	413	21	15

## Demografik holat

**Migratsiya.** 2018 yil yanvar-mart oylarida respublika bo'yicha ko'chib kelganlar soni 3,1 ming kishini, ko'chib ketganlar soni esa 3,8 ming kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosini minus 0,7 ming kishi bo'lib, 2017 yilning mos davrida minus 0,9 ming kishi bo'lgan.

### Aholi migratsiyasi (ming kishi)

	2017 yil yanvar-mart	2018 yil yanvar-mart
<b>Ko'chib kelganlar</b>	3,3	3,1
<b>Ko'chib ketganlar</b>	4,2	3,8
<b>Migratsiya saldosini</b>	- 0,9	- 0,7

Migratsiya saldosining yuqori darajasi Chimboy (minus 0.2 ming kishi), Kegeyli (minus 0,1 ming kishi) va Qorao'zak (minus 0,1 ming kishi) qayd etildi.

**Qoraqalpog'iston Respublikasi Statistika boshqarmasining Demografiya va mehnat statistikasi bo'limi boshlig'i:**  
Nashr uchun mas'ul: **G.Esboganova**  
(71) 230-82-17  
(71) 230-82-17